

MASSAGET QABILLARINING KELIB CHIQISHI TARIXIGA DOIR FARAZLAR

Matnazarova M

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Tadqiqotchilar fikricha, Yevroosiyo dashtlarining keng hududlarini egallagan ko'chmanchi qabilalarning birlashmasi, umumiy nom bilan – massagetlar deb atalgan. Massagetlarning ko'chmanchi chorvador qabilalarning uyushmasi ekanligi keyingi davrlarda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari bilan ham asoslagan. Maqolada ko'chmanchi qabilalarning kelib chiqish tarixi tahlili amalga oshirildi.*

Kalit so'zlar: *“masiaka yoki masiaga”, mozor-qo'rg'onlar- tosh sag'analar, skiflar, massaget, ko'manchi qabilalar.*

Аннотация. *По мнению исследователей, группа кочевых племен, занимавших большие площади евразийских степей, называлась общим названием - массагеты. То, что массагеты представляют собой объединение кочевых скотоводческих племен, подтверждено археологическими исследованиями, проведенными в более поздние периоды. В статье анализируется история происхождения кочевых племен.*

Ключевые слова: *«масиака или масиага», гробницы-каменные курганы, скифы, массагеты, племена команчи.*

Abstarct. *According to researchers, a group of nomadic tribes that occupied large areas of the Eurasian steppes were called by a common name - Massagetae. The fact that the Massagetae are an association of nomadic pastoral tribes is confirmed by archaeological research carried out in later periods. The article analyzes the history of the origin of nomadic tribes.*

Key words: *“Masiaka or Masiaga”, stone mound tombs, Scythians, Massagetae, Comanche tribes.*

Massaget qabilalari qadimgi dunyo sivilizatsiyasi tarixida sezilarli o'ringa ega bo'lganlar. Ilmiy adabiyotlarda ko'pincha massagetlarni tilga olganda “sak-massaget” tushunchasi bilan ishlatadilar. Tadqiqotchilar fikricha, Yevroosiyo dashtlarining keng hududlarini egallagan ko'chmanchi qabilalarning birlashmasi, umumiy nom bilan – massagetlar deb atalgan. “Massaget” atamasi dastlab Geradotning “Tarix” kitobida tilga olingan. Unda “saklarning kundalik turmush tarzi, urf-odatlarini skiflarnikiga o'xshab ketadi. Aslida, “saklar skif qabilalaridir. Forslar barcha skiflarni saklar deb

ataydilar”³⁶ deb yozib qoldirgan. Strabon ma’lumoticha, “Ko’pchilik skiflar, Kaspiy dengizidan boshlanib, dailar deb ataladi. Ulardan sharqda yashovchi qabilalar massaget va saklar, qolganlarini ham umumiy nom bilan skiflar deb atashadi. Lekin har bir qabilaning o’zining nomi bor. Ularning hammasi, umumiy jihatdan, ko’chmanchilar³⁷”. Kir II ga qarshi kurashgan ko’chmanchilar Geradot va Strabonda massagetlar deb, Ktesiyda derbeklar³⁸ deb beriladi.

Yozma manbalar talqini asosida massagetlar haqida tadqiqotchilar o’rtasida turli farazlar ilgari surilgan. Bu atamaning izohi borasida ham turli talqinlar mavjud. XX asrning boshlarida xorijlik olimlar Y.Markvart va V.Tomashek Strabonning massagetlar haqida bergan ma’lumoti asosida massaget so’zini Avestoda berilgan “masio” (baliq) so’zidan kelib chiqqan deb ko’rsatganlar. Ular bu so’zga ko’plik ma’nosini berib, “masiaka yoki masiaga” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “baliq iste’mol qiluvchilar” degan ma’noni anglatishi mumkin deb hisoblaganlar. Strabon massagetlarning bir qismi botqoqliklarda yashaydi va baliq bilan ozuqalanadilar deb yozib qoldirgan.

Boshqa tadqiqotlarda ularni saklarning katta siyosiy birlashmasi deb talqin qiladilar. “Massaget” atamasini yunoncha “mas”, “saka” va “ta” so’zlaridan tarkib topib, “saklarning katta uyushmasi” ma’nosini anglatadi deb ko’rsatishadi. Tadqiqotlarda massagetlar tarkibiga kirgan qabilalar haqida ham ma’lumotlar beriladi. S.P.Tolstovning fikricha, massagetlar konfederatsiyasi tarkibiga xorasmiylar, apasiaklar, sakavaraklar, amyurgiya saklari, derbiklar, toxarlar (dahlar), osiylar (yatiy, asian, usun, yaksart), augasiylar kirgan.

Massagetlarning ko’chmanchi chorvador qabilalarning uyushmasi ekanligi keyingi davrlarda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari bilan ham asoslagan. 1914 yilda A.Xerrman tomonidan ilgari surilgan g’oya ham ko’pchilik olimlar tomonidan e’tirof etilgan. A.Xerrman axamoniylar va yunon yozma manbalarini solishtirib, tigraxauda saklari bilan massagetlar bir qabilaning ikki xil nomi degan xulosani bergan. Uning fikricha, massagetlar turli qabilalar iborat bo’lgan yirik konfederatsiyaga birlashganlar, ular tarkibiga derbeklar ham kirgan.

XX asrning ikkinchi yarmigacha Orol-Kaspiy hududlarida yetarli darajada arxeologik tadqiqot ishlari olib borilmaganligi sababli massagetlarning tarqalgan hududlari bo’yicha yetarli ma’lumotlar mavjud bo’lmagan. Bu hududda dastlabki arxeologik tadqiqot ishlari A.M.Mandelshtam tomonidan aniqlangan. A.M.Mandelshtam 1962 yilda Kaspiy dengizning Qorabo’g’oz

³⁶ Геродот. История в девяти книгах. Перевод Г.А.Стратановского, 2001, кн. VII, 64.

³⁷ Страбон. 7, XI, VII, 2.

³⁸ Пьянков И.В. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. - Душанбе. 1975. - С.91.

hududidagi Gyokdag II va Janak II arxeologik yodgorliklarini massagetlar bilan bog'laydi³⁹. Bu yodgorliklardagi qabrlar doira shaklida bo'lib, tosh bilan o'rab olingan va unga ko'p marotaba dafn qilinganligini aniqlangan. Shunga o'xshash qabrlar Uzboy va Ustyurt hududlaridan ham aniqlangan.

XX asrning 70-yillaridan Ustyurtda O'zR FA Qoraqapog'iston bo'limining Arxeologiya otdeli Ustyurda arxeologik tadqiqot ishlarini olib borishgan. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida A.M.Mandeltam tomonidan topilgan arxeologik yodgorliklarga o'xshash yodgorliklar ko'plab aniqlangan. Bu ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan qoldirilgan tosh sag'analar V.N.Yagodin tomonidan ham tadqiq qilingan. Tadqiqotchilar bunday tosh sag'analar butun Orol va Kaspiy dengizi oralig'idagi cho'llarda keng tarqalganligini aniqlashgan.

V.N.Yagodin Orol - Kaspiy hududlarda ko'chmanchi chorvador qabilalarning mozor-qo'rg'onlar tosh sag'analarining qurilish uslubini 2 guruhga ajratgan⁴⁰.

1. Tosh quti (kamenny yashik)- ishlov berilmagan tosh plitalaridan to'g'riburchak, ba'zida tuxumsimon shaklga o'xshash tarzda qurilgan. U 2,0-3,0 x 1,3-2,3 metrni tashkil qilgan. Tosh quti meridian bo'ylab biroz sharq tomonga og'dirib solingan. U yirik tosh plitalar bilan atrofi o'rab chiqilgan, kirish eshigi qoldirilmagan. Tosh qutining ustidan toshli tuproq tortilgan, uning kengligi 5 metrdan 10 metrgacha, balandligi 0,8-1,2 metrgacha bo'lgan.

2. Doira yoki tuxumsimon shaklda ishlov berilmagan tosh plitalardan qurilgan. Usti toshli tuproq bilan qoplangan yoki soxta ark qurilgan. Bu esa, tosh sag'anaga tuynuk orqali kirish imkonini bergan. Sag'ananing diametri 1,5-6,0 metrgacha bo'lgan.

Tosh sag'analarda vafot etganlar ingumatsiya odati bo'yicha dafn etilgan. Ularning boshi janub tomonga qaratilib, chalqanchasiga yotqazilgan. Tosh sag'anaga vafot etganlar qayta qo'yilavergan. Sag'anaga marhumlar buyumlar bilan dafn etilganligi sababli, ular keyingi davrlarda talonchilar tomonidan talangan. Saqlanib qolgan moddiy manbalar mil.avv.V- IV asrlarga oid quyi Volga, janubiy Ural va mil.avv. V -III asrlarga oid qadimgi Xorazm moddiy manbalariga o'xshashligi tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan.

XX asrning 80-yillarida X.Yusupovning Uzboy hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlari natijasida ko'chmanchi chorvadorlarning tosh sag'analari aniqlangan. X.Yusupov ham ularni massagetlar bilan bog'lagan.

Ko'p marotaba odam dafn etilgan tosh sag'analar Orol-Kaspiy hududining barcha joylarida aniqlangan. Ular sharqda janubi -sharqiy

³⁹ Мандельштам А.М. К характеристике ранних кочевников Закаспия. //КСИА. Вып. 147. 1976.

⁴⁰ В.Н.Ягодин Саки тиграхауда – массагеты Арало-Каспия. /“Арал-Каспийский регион в истории и культуры Евразии”. Материалы II Международной конференции, посвященной 20-летию независимости Республики Казахстан. Г.Актобе, 14-18 сентября 2011 года. – Алматы-Актобе. 2011.

Ustyurtdan g'arbda Kaspiy dengizigacha, janubda Uzboygacha, shimolda Emba daryosining quyi oqimigacha bo'lgan hududlargacha tarqalgan. V.N.Yagodin uni "Orol-Kaspiy arxeologik madaniyati" deb nomlagan⁴¹. Uning xronologiyasi mil.avv. VI-II asrlarni o'z ichiga oladi. Orol-Kaspiy hududida mil.avv. VII asr va mil.avv. VI asrning birinchi yarmiga oid arxeologik yodgorliklar topilmagan.

V.N.Yagodin Geradot asarida keltirilgan Kir II ning massagetlarga qarshi yurishini va Doro I ning tigraxauda saklariga qarshi yurishini solishtirib, massagatlarni tigraxauda saklari deb asoslaydi.

B.I.Vaynberg Uzboyning yuqori va o'rta oqimida derbeklar, yuqori oqimida apasiaklar bo'lgan deb ko'rsatadi⁴². Mil.avv. III asrning birinchi yarmidan Orol -Kaspiy hududlarida daxlar yoki dailar yashagan. Shu davrdan boshlab dafn marosimlarida o'zgarishlar kuzatiladi. Ularda janubiy Uraldagi Proxorov madaniyatiga xos bo'lgan. Uni yunon manbalaridagi daxlar bilan bog'laydilar.

Apasiaklarni yozma va arxeologik manbalarni tahlil qilish orqali quyi Sirdaryo bo'ylari bilan ham bog'lashadi. Bu g'oya XX asrning 50-yillarida S.P.Tolstov tomonidan ilgari surilgan va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham qo'llanilgan.

Sirdaryoning quyi oqimidagi deltalari Quvondaryo va Jonidaryo bo'ylarida yarim ko'chmanchi qabilalarning yodgorliklar joylashgan. XX asrning 50 - 60 – yillarida hududda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida saklarning 4 ta yirik ittifoqining joylashgan hududlari aniqlangan: Jonidaryo bo'ylarida apasiaklar, Quvondaryo bo'ylarida toxarlar, Sirdaryo va Quvondaryolarning quyi oqimining oralig'ida augasiylar va Inkardaryo bo'ylarida sakaravaklar yashagan⁴³. Bu qabilalar bir iqtisodiy hududda yashagan bo'lsalarda, o'zlaridan turli madaniyat izlarini qoldirishgan.

S.P.Tolstov Sirdaryoning quyi oqimida o'zanlarning, ko'l va botqoqliklar sonining ko'pligini inobatga olib, Strabon yozib qoldirgan "botqoqlik va orollarda yashaydigan massagetlar" bo'lishi mumkin deb ko'rsatadi. Ular qoldirgan moddiy madaniyatni "Ko'kcha - tengiz madaniyati" deb nomlaydi. Keyingi davrlarda "botqoqlik va orollarda yashaydigan massagetlar" umumiy nom bilan apasiaklar deb ham hisoblashadi. Ko'kcha-tengiz madaniyatiga oid yodgorlik dastlab XAEE tomonidan Amudaryoning Oqchadaryo o'zani bo'ylarida topilgan. Keyinchalik u Jonidaryo hududlarida ham aniqlangan.

⁴¹ В.Н.Ягодин Саки тиграхауда – массагеты Арало-Каспия. /"Арал-Каспийский регион в истории и культуры Евразии". Материалы II Международной конференции, посвященной 20-летию независимости Республики Казахстан. Г.Актобе, 14-18 сентября 2011 года. – Алматы-Актобе. 2011. -С.162.

⁴² Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. -М.: 1990.- 225-227.

⁴³ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Наука, 1962. -С. 136

Ko'kcha-tengiz madaniyati xronologik jihatdan 2 davrga ajratiladi.

1. Mil.avv. VII-V asrlar
2. Mil.avv. IV-II asrlar

Ilk Ko'kcha-tengiz madaniyatiga tegishli yodgorliklar Oqchadaryo bo'yidagi Oq-Saga qirligidan, Baraktomning shimoliy tomonidan, Jonidaryo bo'yidagi Jaldiboy qudug'i bo'ylaridan topilgan. Ko'kcha-tengiz madaniyatining o'ziga xos xususiyati mehnat qurollarining chaqmoqtoshdan ko'pol tarzda ishlangan paraqalar va qora qumtoshdan silliq qilib ishlangan boltalardir. Sopol idishlar qo'lda ishlangan va kam tirnalgan holda yoki bosilgan holda naqshlar qo'yilgan. Bronzadan ishlangan mehnat qurollari, skiflarning o'q uchlari topilgan. Chaqmoqtoshdan ishlangan mehnat qurollari – paraqalar Ko'kcha-tengiz madaniyatining ikki bosqichida ham qo'llanilgan. Shu jihatini e'tiborga olib tadqiqotchilar, chaqmoqtosh mehnat qurollari apasiaklarning xarakterli xususiyati bo'lgan deb ko'rsatishadi. Ularning ijtimoiy turmushida chaqmoqtoshlar mil.avv. I ming yillikning oxirlarigacha muxim o'rin tutgan.

So'nggi Ko'kcha-tengiz madaniyatining mahalliy variantlari Oqchadaryo va Yangidaryo bo'ylarida ham tarqalgan. Ular yarim o'troq bo'lib, dehqonchilik bilan ham shug'ullanganlar. Ularning qarorgohlari yonidan sun'iy sug'orish tizimining izlari aniqlangan. Daryo o'zanlaridan kichik ariqlar chiqarib dehqonchilik qilishgan. Ijtimoiy turmush tarzida chorvachilik yetakchi o'rinni egallagan. Apasiaklar ovchilik, baliqchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Ko'kcha-tengiz madaniyatining keyingi bosqichlarida Qang' davlati va qadimgi Xorazm davlati bilan iqtisodiy, savdo – sotiq aloqalarini olib borishgan.

Chirikrabortni apasiaklarning markaziy qo'rg'oni bo'lgan deb ko'rsatishadi. U Qozoqistonning Qizil-O'rda shahridan 300 km janubi-g'arbda, Qizilqum cho'lida joylashgan. Bu yodgorlik dastlab 1946 yilda ochilgan. 1948 -1949 yillarda dastlabki tadqiqot ishlari S.P.Tolstov boshchiligida XAEE tomonidan olib borilgan. 1957-1958 yillarda Yu.A.Rapoport va S.A.Trudnovskaya rahbarligida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida yodgorlikning yoshi aniqlandi va u haqda ko'p ma'lumotlar ochiqlandi. Chirikrabort tepalikda joylashgan, uning balandligi 15 metrni tashkil qilgan. Tarhi tuxumsimon bo'lib, tepalik shaklini olgan. Hududi 42,16 gektar. Uning markazida 12,4 gektarni egallagan to'g'ri burchakli markaziy bino qurilgan.

Chirikrabort mil.avv. V-IV asrlar bunyod etilgan, mil.avv. II asrgacha faoliyat yuritgan. Bir necha bor qayta qurilgan. Qal'a ichki, tashqi mudofaa devor va handak bilan o'ralgan. Mudofaa devorning qurilish uslubi qadimgi Xorazmdagi qal'alarning mudofaa devorlarining qurilish uslubiga o'xshash. Chirikrabortning pastki madaniy qatlamidan 6 ta mozor-qo'rg'on topilgan.

Ularning 4 tasi markaziy binoga yaqin joylashgan. Ulardan shimoli-sharqda joylashgan mozor-qo'rg'on arxeologlar tomonidan ochib o'rganilgan. U kvadrat shaklida (7,5x7,4m) bo'lib, saqlanib qolgan devorining balandligi 2,5 metr. Usti yupqa loy bilan suvalgan va oqlangan. Muzor-qo'rg'onning shimoli-g'arbida oval shaklida chuqurcha qilingan. Muzor-qo'rg'on dromosiga 6 ta keng va tik zina bilan tushilgan. Dromos⁴⁴ va pol ham loy suvoq qilingan. Dafn marosimlari o'tkazilgach, mozor-qo'rg'on ko'mib tashlangan. Dromos va mayit qo'yilgan joy olti qavat qamish qoplama bilan yopib tashlangan. Bu mozor-qo'rg'onida odam suyak qoldig'i aniqlanmagan. Bu yerda talonchilik izlari bor. Bu mozor-qo'rg'on uyumi ostida o'rta asrlar davriga oid qabrlar aniqlangan.

Qadimgi davrga tegishli mozor-qo'rg'onidan mil.avv.V- IV asrlarga oid bo'lgan qo'lda va charxda ishlangan sopol idishlar, temirdan ishlangan qilich topilgan. Bunday qilich G'arbiy Qozoqistondagi Qora-Oba, Uraloldi hududlaridan topilgan qilichlarga o'xshashligi aniqlangan. Qadimgi davrga oid mozor-qo'rg'onlardan biri doira shaklida bo'lib, diametri 38,5 metr. Saqlanib qolgan balandligi 8,4 metr. Markazida bir xil o'lchamdagi (5,9x5,9m) to'rtta kvadrat shaklida xona bo'lib, ularning devorining qalinligi 3 metrni tashkil qilgan. Xonalarda devor bo'ylab xom g'ishtdan supalar qurilgan. Ularga loydan suvoq qilingan. Tom qismi yog'och ustun bilan ko'tarilgan. Muzor-qo'rg'onga kirish eshigi janub tomonda bo'lgan. Bu doirasimon bino mil.avv. IV -III asrlar bo'sag'asi bunyod etilgan. Inshootdan skif tipidagi o'q uchlari, temirdan ishlangan pichoq, fil suyagidan ishlangan taroq, tosh va shishadan ishlangan munchoqlar, oltin, kumush taqinchoqlar, uchta oltin qo'ng'iroq va boshqa ko'plab narsalar torpilgan. Temirdan ishlangan sovutning parchalarining topilishi o'sha davrdagi jangchilarning jangda temir sovutdan foydalanishganligini ko'rsatadi. Shunga o'xshash sovutlarning rasmlari qadimgi Xorazm yodgorliklaridagi suvdonlarda aks ettirilgan. Bu jihatdan apasiaklarning qadimgi Xorazm o'zaro madaniy aloqalar borligini ko'rsatadi.

Muzor-qo'rg'onida ayol qabri ham aniqlangan, uning yoniga o'q uchi qo'yilgan. Bu o'sha davr ayollarining jangchi bo'lganligi haqida yunon yozma manbalaridagi ma'lumotlarni asoslaydi. Yodgorlikda topilgan sopol buyumlar - xum, xumcha, ko'za, kosa, tovoqlarning ishlanish uslubi qadimgi Xorazm sopol idishlariga o'xshash. Sopol buyumlarning yuza qismi qizil angob bilan bo'yalgan. Bu yerdan torpilgan suvdonlar Qang' davriga oid bo'lib, ularning yuza qismiga doirasimon shakllar chizma holda berilgan. Tadqiqotchilar bu topilmalarni mil.avv.III-II asrlarga oid deb ko'rsatadilar.

⁴⁴ Mayit turgan joyga olib boradigan yo'lak.

Chirikrabortdan 40 km. shimoli -sharqda Babishmulla yodgorligi qurilgan. Yodgorlikdan topilgan moddiy manbalarni tadqiqotchilar mil.avv. IV-II asrlarga oid deb ko'rsatishgan. 1946 yilda S.P.Tolstov boshchiligidagi XAEE tomonidan aniqlangan. Babishmulla qal'asi atrofida mozor-qo'rg'on, qishloqlar va sun'iy sug'orish tizimlari aniqlangan. Babishmulla qal'asi Babishmulla 1 deb, mozor-qo'rg'on Babishmulla 2 deb nomlangan. Babishmulla 1 noto'g'ri shaklga ega bo'lib, mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olingan. Mudofaa devorning eni 5,3 metr, yarim doira shaklidagi burjlar mudofaalangan. Qal'aning shimoliy qismida to'rtburchak shaklidagi (100x100 m) ark qurilgan. Ark mustahqam mudofaa devori bilan o'ralgan. To'rt burchagida yarim doira shaklidagi burjlar qurilgan. Burj ichida xonalar mavjud emas, faqat mudofaa devorni mustahkamlash uchun bunyod etilgan. Mudofaa devori burj va nayzasimon shinaklar bilan mustahqamlangan. Ark ichida yana bir to'rtburchak shaklida yirik uy qurilgan. Tadqiqotchilarni uni "katta uy" deb nomlaganlar. Arkning janubi- g'arbiy qismida kvadrat shaklida 30x30 metr maydonda "donjon⁴⁵" tipida o'xshatib qurilgan bino aniqlangan. Uning 4-5 balandlikdagi qismi saqlanib qolgan. S.P.Tolstov Babishmulla 1 qurish jarayonida ishlatilgan kvadrat va to'g'riburchakli xom g'ishtni terish uslubini, "donjon" tipidagi binoni Xorazm vohasida afriqiy davrida qo'llanilgan deb ko'rsatadi⁴⁶.

Yodgorlikda uchta qurilish bosqichi aniqlangan. Birinchi bosqichida qurilish ishlari tugallanmagan, katta yong'in izlari aniqlangan. Ikkinchi qurilish bosqichida qurilish ishlari butunlay yangi me'moriy uslubda davom ettirilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu davrda siyosiy jihatdan ham tub o'zgarishlar ro'y bergan. Ikkinchi bosqichda qurilgan yangi xonalar bir-biri bilan bog'langan. Bir xonada katta o'choq qurilgan, bu diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ba'zi xonalari omborxonasi sifatida qurilgan. U yerda ko'plab yirik xumlar topilgan. Ark yonida mis quyish ustaxonasi va xumdonlar bo'lgan. Uchinchi qurilish bosqichiga oid topilmalar ikkinchi qurilish uslubi bilan o'xshash bo'lgan.

"Donjon" da ham uchta qurilish bosqichi aniqlangan. Lekin uning qurilish davrlari ark bilan deyarli to'g'ri kelmaydi. Donjonning ikkinchi qurilish davrida tom qismi ravoq bilan berkitilgan. Uning janubiy tomondagi tashqi devori pilyastr bilan bezatilgan. Donjonning ichki va tashqi devorlari somonli loy suvoq qilingan. Bu davrda donjonda aholining turar joylari qurilgan. Uchinchi qurilish bosqichida donjon butunlay qayta qurilgan. Ilgarigi xonalar butunlay

⁴⁵ Donjon – qal'a ichidagi o'ziga xos minora bo'lib, alohida quriladi va balandligi bilan boshqa binolardan ajralib turadi. U yog'och yoki toshdan bunyod etiladi. Ko'p qavatli qilib quriladi. Uch qavatlisi keng tarqalgan. Donjonda qurol-yarog'lar, asosiy quduq, oziq-ovqat omborlari joylashadi. Qal'aning alohida istehkomidir.

⁴⁶ Толстов С.П. По древным дельтам Окса и Яксарта.-С.162

ko'mib tashlanib, ustidan yangi xonalar bunyod etilgan. Binoning ichki va tashqi devorlari xom g'isht bilan qoplab chiqilgan. Binoga shinaklar ham o'rnatilgan. Donjondan ko'plab sopol siniqlari va hayvon suyagi qoldiqlari topilgan. Skif tipidagi o'q uchlari mil.avv. III-II asrlarga oid bo'lgan⁴⁷.

Yodgorlikdan topilgan sopol idishlar Xorazm vohasining antik davridagi sopol idishlariga o'xshash. Ular charxda ishlangan, xumdonda yaxshi pishirilgan va qizil angob bilan bo'yalgan. Mudofaa devorlarining qurilish uslubi ham Xorazmdagi antik davr qal'alari qurilishi o'xshash. Bu qadimgi Xorazm davlatining eng shimoliy chekkasi bo'lishi mumkin.

Babishmulla 1 ning atrofidan qishloqlar va sug'orish tizimi izlari aniqlangan. Babishmulladan 6 km. janubi – sharqda ko'plab xumdonlar topilgan. Yonidan chaqmoqtoshdan ishlangan tosh qurollari, uch parrakli skiflarning o'q uchlari, yorg'uchoqlar, temir toshqollari topilgan. Ular mil.avv. IV-II asrlarga oid deb qo'rsatiladi.

1959 yilda Inkardaryo bo'yida XAEE tomonidan ko'chmanchi qabilalarning mozor-qo'rg'onlar topilgan. Ularning atrofi sopol toshqollari bilan o'rab olingan. Shu sababda tadqiqotchilar unga "Shlakli mozor-qo'rg'on" madaniyati nomini berishgan. Muzor-qo'rg'on ichida sopol siniqlari bilan birga insonlarning yongan suyak qoldiqlari, bronzadan ishlangan uch parrakli uch o'q uchlari topilgan. Ular mil.avv. VI-V asrlarga oid bo'lgan. Qo'lda ishlangan sopol ko'pchilikni tashkil qilgan. Shlakli mozor-qo'rg'onlarda dastlab 1 metr kenglikda, 20 santimetr chuqurlikda, diametri 10 metr bo'lgan doira shaklidagi chuqurlik qazilgan. Keyinchalik chuqurcha loy bo'laklari bilan to'ldirilgan va uning ustidan 1 metr balandlikda toshqol qo'yilgan. Uning ustida mayitni yoqishgan bo'lishi mumkin. Bu ko'tarmaning markazida yong'in izlari saqlanib qolgan, uning orasida yongan inson suyak qoldiqlari ham topilgan. Dafn marosimlari amalga oshirilgach, uning ustidan loy bilan aralashgan qum bilan qoplangan. S.P.Tolstov fikricha, bu axamoniylar va antik manbalarda qayd qilingan sakavaraglardir. Ularni axamoniylar saka-xaumavarka deb, antik davr mualliflari amyurgi saklari deb atashgan⁴⁸. Olim sakavaraglarning tarqalgan chegaraning shimoliy chekkasi bo'lishi mumkin deb ko'rsatadi. Shu bilan birga ularni apasiaklarga nisbatan rivojlanishning yuqori bosqichida bo'lgan deb hisoblaydi, chunki ular chaqmoqtosh paraqalarni xo'jalikda ishlatishmagan. Yodgorliklardan bunday qurollar topilmagan. Sopol toshqollarini ishlab chiqish uchun xumdonlarda kuchli olov hosil qilish lozim bo'lgan. Bu ham ularning ma'lum bir taraqqiyot darajasiga yetganligini ko'rsatadi. Bunday dafn marosimini tadqiqotchilar, olovga e'tiqod bilan bog'lashgan. Shunga o'xshagan.

⁴⁷ Толстов С.П. По древным дельтам Окса и Яксарта.-С.162

⁴⁸ Толстов С.П. По древным дельтам Окса и Яксарта.-С.184.

dafn urf odatlari bronza davriga oid Tagisken mozor-qo'rg'onlarining bittasida kuzatilgan. Tagiskenga yaqinida joylashgan Qiziltepada ham aniqlangan.

Uygarak mozor-qo'rg'onlari O.A.Vishnevskaya boshchiligidagi otryad tomonidan olib borilgan. Ularda doira ichiga o't va qamishdan qilingan to'shama ustiga mayitni qo'yib, ustidan shoh-shabba qo'yishgan. Shundan keyin yoqishgan. Yoqish jarayonida faqat mayit o'ralgan shoh-shabbalar yongan. U yerdan otning egar-jabduqlari qoldiqlari, "xayvoniy uslub"da ishlagan to'qa, ikki va uch rarrakli bronza o'q uchlari topilgan. Bu mozor-qo'rg'onlar mil.avv. VI -V asrlarga oid.

Quvondaryo bo'ylarida toxarlarning yodgorliklari tadqiq qilingan. Dastlabki tadqiqot ishlari 1947-1951 yillarda olib borilgan. Bu madaniyat mil.avv. I asrning o'rtalaridan milodiy VI -VII asrlargacha mavjud bo'lgan. Bu yodgorliklar Djeti-asar qirligida joylashgani uchun ham shu nom bilan atalgan. 20 dan ortiq yodgorliklar aniqlangan. Ularning orasida eng yirigi Altin-asar hisoblanadi. U trapesiya shaklida bo'lib, 16 gektar hududni egallagan. U yerda to'rtta o'ziga xos qurilma aniqlangan. "Katta uy" ko'plab turar joylar spiralsimon reja asosida bo'lgan. "Kichik uy" da maqbara bo'lgan. Uchinchi va to'rtinchi qurilmalar doira va to'g'riburchak shaklidagi devorlar bilan o'rab olingan, lekin nima uchun ishlatilganligi ma'lum emas. "Katta uy"dan topilgan sopol idishlar qo'lda ishlangan bo'lsada nozik va turli shakllarda ishlangan. Qora rang bilan bo'yalgan.